Ingliz paremiologiyasida ayol obrazining aks etishi: gender yondashuv asosida tahlil

Rahimova Munira Xudayarovna
munirakhimova14@gmail.com
Talaba,
Urganch RANCH texnologiya universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqola ingliz tilidagi maqollar orqali ayol obrazining shakllanishi va paremiologik dunyoqarashda gender stereotiplarining namoyon bo'lishini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda ayollarga oid stereotipik tasavvurlar ingliz paremiologik sistemasida qanday aks etishi modellashtirilib, ayollik obrazining til vositalarida ifodalanishi va milliy-madaniy xususiyatlari o'rganildi.Ingliz maqollarida ayol obrazi milliy-madaniy xususiyatlar orqali turli xil ijtimoiy va madaniy stereotiplarni aks ettiradi. Ushbu maqollar asosan ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning fazilatlari va kamchiliklari haqida tasavvurlarni ifodalaydi. Ingliz maqollarida ayol obrazining milliy-madaniy xususiyatlari ko'pincha patriarxal jamiyatning qadriyatlari va stereotiplarini aks ettiradi. Shu bilan birga, ular ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini va jamiyatdagi o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Maqolada ayol obrazining ijobiy va salbiy fazilatlar orqali ziddiyatli tarzda tasvirlanishi ko'rsatib berildi. Tahlil natijalari shuni anglatadiki, ingliz maqollarida salbiy etnotipik xususiyatlar ustunlik qiladi, bu esa androsentrizm darajasining yuqoriligini namoyon etadi. Shuningdek, ayol obrazining ko'pincha instrumental yondashuv asosida, ya'ni foyda nuqtai nazaridan talqin qilinishi aniqlangan. Ushbu tadqiqot gender yondashuv asosida ingliz paremiologiyasida ayol obrazining shakllanishini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar *Gender stereotipi, paremiologik dunyoqarash, ayol obrazi, ingliz maqollari, lingvomadaniyat, kommunikativ-pragmatik yondashuv, maqollar semantikasi*

Отражение образа женщины в английской паремиологии: анализ на основе гендерного подхода

Рахимову Муниру Худаяровну
muniraximova14@gmail.com
Студент,
Ургенчский технологический университет РАНЧ

Аннотация *Данная статья посвящена анализу формирования женского образа через пословицы на английском языке и проявления гендерных стереотипов в паремиологическом мировоззрении. В исследовании моделируется, как стереотипные представления о женщинах отражаются в английской паремиологической системе, изучается выражение женского образа в языковых средствах и национально-культурные особенности. Эти пословицы в основном выражают представления о роли женщин в обществе, их достоинствах и недостатках. Национально-культурные особенности образа женщины в английских пословицах часто отражают ценности и стереотипы патриархального общества. В то же время они помогают понять роль женщин в общественной жизни и изменения в обществе.В статье показано, что образ женщины изображается в противоречивой форме через положительные и отрицательные качества. Результаты*

анализа показывают, что в английских пословицах преобладают негативные этнотипические черты, что свидетельствует о высоком уровне андроцентризма. Также было обнаружено, что образ женщины часто интерпретируется на основе инструментального подхода, то есть с точки зрения выгоды. Данное исследование служит более глубокому пониманию формирования женского образа в английской паремиологии на основе гендерного подхода.

Ключевые слова *Гендерные стереотипы, паремиологический мировоззрение, образ женщины, английские пословицы, лингвокультура, коммуникативно-прагматический подход, семантика пословиц*

Reflection of the image of a woman in English paremiology: analysis based on a gender approach

Rakhimova Munira Khudayarovna
muniraximova14@gmail.com
Student,
Urgench RANCH university of technology

Annotation *This article is aimed at analyzing the formation of the image of a woman through English proverbs and the manifestation of gender stereotypes in the paremiological worldview. The study modeled how stereotypical perceptions of women are reflected in the English paremiological system and studied the expression of the image of femininity in linguistic means and national-cultural features. These proverbs mainly express ideas about the role of women in society, their merits and shortcomings. In English proverbs, the national-cultural features of the female image often reflect the values and stereotypes of patriarchal society. At the same time, they help to understand the role of women in social life and changes in society. The article shows that the image of a woman is portrayed in a contradictory way through positive and negative qualities. The results of the analysis show that negative ethnotypic features prevail in English proverbs, which indicates a high level of androcentrism. It has also been established that the image of a woman is often interpreted on the basis of an instrumental approach, that is, from the point of view of profit. This research serves a deeper understanding of the formation of the image of a woman in English paremiology based on a gender approach.*

Keywords *Gender stereotype, paremiologically worldview, female image, English proverbs, linguacultural, communicative-pragmatic approach, proverb semantics*

Kirish

So'nggi yillarda gender stereotiplari masalasiga bo'lgan ilmiy qiziqishning ortib borishi tilshunoslikda, ayniqsa maqollarni tahlil qilishda o'z aksini topmoqda. "Paremiyalar – xalq tafakkurining mahsuli sifatida yuzaga kelgan va inson xatti-harakatlarini modellashtirish vazifasini bajarayotgan barqaror iboralardir" (Kiryuxina, 2021). "Maqollar, matallar, topishmoqlar va boshqa paremiologik birliklar tilning madaniy qatlamini tashkil etadi va xalq ijtimoiy tajribasining

muhim aksidir" (Anosov, 2012). Bunday birliklar gender stereotiplari va vakilliklarini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ular jamiyatda mavjud bo'lgan erkak va ayollarga oid umumlashtirilgan tasavvurlarni, emotsional-ekspressiv baholashlarni ifodalaydi. Gender stereotiplari – bu ma'lum madaniyat doirasida shakllangan va erkaklar hamda ayollarning xulq-atvori haqidagi umumiy tasavvurlardir (Brown, 1994).

Xalq maqollari orqali milliy mentalitet va stereotiplarning ifodalanishi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan (Butler, 1990). W. Mieder qayd etganidek, maqollar inson tajribasining asosiy aksidir va jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlarni ifodalaydi.

Tadqiqot vazifalari va Metodologiya

- Ingliz maqollarida gender stereotiplarining namoyon bo'lish shakllarini aniqlash;
- Ayollik identifikatsiyasi mezonlarini belgilash;
- Paremiologik dunyoqarashda gender stereotiplarining ta'sir doirasini kuzatish;
- Ayol obrazining lingvistik tasvirini tahlil qilish;
- Ayollik obrazining milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: Struktura-semantik tahlil: Maqollarning tuzilishi va semantik mazmunini o'rganish. Tavsifiy-tasnifiy metodlar: Maqollarni gender stereotiplariga oid mavzular bo'yicha tasniflash. Lingvomadaniy tahlil: Maqollarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash. Statistik tahlil: Gender stereotiplariga oid maqollarning ulushini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili

Ingliz paremiologiyasida ayol obrazining aks etishi va gender stereotiplarining tahlili bo'yicha tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar turli xil ilmiy manbalar va tadqiqotlarga asoslangan. Ushbu bo'limda adabiyotlarning mazmuni, ularning tadqiqotga qo'shgan hissasi va ahamiyati tahlil qilinadi.

Tadqiqotda gender stereotiplarini o'rganish uchun bir qator nazariy manbalar asos qilib olingan. Jumladan: T. Archer va A. Bertram kabi tadqiqotchilarning maqollar to'plamlari ayol obrazining lingvistik va madaniy jihatlarini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qilgan (Archer, 1962 & Bertram, 1993). Ushbu to'plamlar ingliz tilidagi maqollarning semantik va struktura xususiyatlarini aniqlash imkonini bergan. G.B. Bryan va W. Mieder tomonidan yozilgan tadqiqotlar ingliz va amerika adabiyotidagi maqollarni tahlil qilib, gender stereotiplarining tarixiy ildizlarini ochib bergan (Mieder, 2005).

Speake J tomonidan nashr etilgan *The Oxford Dictionary of Proverbs* maqollarni lingvistik va madaniy jihatdan tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi (Speake, 2008). Ushbu lug'at maqollarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashga yordam bergan. R. Fergusson tomonidan yozilgan *The Penguin Dictionary of Proverbs* maqollarning genderga oid stereotipik mazmunini aniqlashda qo'llanilgan (Fergusson, 1995).

O. G. Dubrovskaya va G. Sh. Hakimova tadqiqotlari rus va ingliz maqollarini qiyosiy tahlil qilish orqali gender stereotiplarining universal va milliy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar ingliz maqollaridagi androsentrik dunyoqarashni boshqa madaniyatlar bilan solishtirish imkonini bergan (Dubrovskaya, 2000 va Hakimova, 2003) Gender Stereotypes in the Paremiological Picture of the World maqolasida ingliz, rus va qirg'iz maqollari tahlil qilinib, gender stereotiplarining lingvistik va madaniy jihatlari o'rganilgan.

Negative portrayal of a woman as emerging from English proverbs (2024) tadqiqoti ingliz maqollarida ayol obrazining salbiy tasvirlanishini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotda maqollarning tarixiy va madaniy kontekstdagi roli ochib berilgan. Dynamic Representation of a Female Gender tadqiqoti esa ayol obrazining ijobiy va salbiy jihatlarini o'rganib, gender stereotiplarining o'zgaruvchanligini ko'rsatgan.

Tarjimaning lingvomadaniy masalalari va muammolari maqolasida lingvistik birliklarning

madaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu yondashuv maqollarning milliy madaniyatni aks ettirishdagi o'rnini aniqlashga yordam bergan. Reflection of gender stereotypes in the paremiological worldview (2024) tadqiqoti ayol obrazining lingvistik vositalar orqali qanday shakllanishini va gender stereotiplarining madaniy ildizlarini ochib bergan.

Tahlil va natijalar

Ayol obrazini tavsiflashda uchta asosiy mezon ko'zda tutilgan:

I. Jismoniy xususiyatlar – tashqi ko'rinish, yosh, fiziologik belgilar. Bu guruhga oid maqollar (23%) go'zallikni baholashga qaratilgan. Masalan:

1. *"There was never a mirror that told woman she was ugly" – (Hech qachon ko'zgu ayolni xunuk deyolmaydi).*
2. *"A woman's hair is her crowning glory" – (Ayol sochi – uning tojidir).*

Ayollarning yoshi esa ko'pincha tashqi ko'rinish orqali baholansa,erkaklarda esa ichki hissiyotlariga bog'liqdir.Inglizlarning maqollarida bularni uchratishimiz mumkin.

3. *"A man is as old as he feels, and a woman as old as she looks"- (Erkak o'zini nechida his qilsa, shuncha yoshda, ayol esa qanday ko'rinsa, shuncha yoshda bo'ladi).*

Ingliz maqollarida hayotdagi azob-uqubat va nosog'lom turmush tarzi insonni tez qaritishi ta'kidlanadi:

4. *"Sorrow and evil life make soon an old wife" – (G'am-g'ussa va yomon hayot ayolni erta qaritadi).*

II. Psixologik xususiyatlar – aqliy, emotsional va xulqiy belgilar. Maqollarning (32%) bu guruhga tegishli bo'lib, ko'p hollarda salbiy baho beriladi:

5. *"A woman's advice is no great thing, but he who would take it is a fool" – (Ayol maslahati – yomon narsa, uni qabul qilgan esa – ahmoq).*
6. *"Women in state affairs are like monkeys in glass-shops" – (Davlat ishlaridagi ayol –do'kondagi maymundek).*
7. *"A woman's hair is long, her tongues is longer" – (Ayolning sochi uzun – tili undan ham uzun)*

Ingliz maqollarida ayollarning hissiyotga beriluvchanligi va kayfiyatining tez-tez o'zgarib turishi ta'kidlanadi:

8. *"A woman's mind and wind change often" – (Ayolning fikri ham, shamol ham tez-tez o'zgaradi)*
9. *"Winter weather and women's thoughts change often" – (Qish havosi va ayolning o'y-xayollari tez-tez o'zgaradi)*
10. *"A woman laughs when she can but cries whenever she wishes" – (Ayol kulgini imkon bo'lsa qiladi, yig'ini esa xohlagan paytda)*
11. *"Female is one head with two faces" – (Ayol – ikki chehrali bitta boshli)*

III. Ijtimoiy-etnik xususiyatlar – ayolning jamiyatdagi ro'li, oiladagi o'rni va ijtimoiy maqomi. Bu guruh maqollarining ulushi (45%) ni tashkil qiladi. Maqollarda ayol – rafiqa, ona, uy Bekasi, kelin sifatida talqin etiladi:

12. *"A man without a wife is but half a man" – (Er – ayolsiz – yarim odam)*
13. *"A man's best fortune, or his worst, is his wife" – (Erkakning eng katta baxti ham, eng katta baxtsizlik manbai ham – uning xotinidir)*
14. *"A worthy woman is the crown of her husband" – (Loyiq ayol – erining tojidir)*
15. *"A good wife lost is God's gift lost" – (Yaxshi xotin yo'qotilsa, bu Xudoning ne'matidan ayrilishdir)*

Ingliz maqollarida yana ayolning sadoqatiga ham katta ahamiyat beriladi. Masalan:

16. *"A true wife is her husband's better half" – (Sodiq xotin – erining yaxshiroq yarmidir)*
17. *"A faithless wife is the shipwreck of the home" – (Xiyonatkor xotin — oila kemasining halokatidir). Shuningdek bu maqollarda ayollarning*

mehnatsevarligi alohida ta'kidlanadi va ularning uy ishlaridagi bandligi tasvirlanadi:

18. *"A woman's work is never done" – (Ayolning ishi hech qachon tugamaydi).*

Xulosa

Ingliz paremiologik tizimi orqali ayol obrazining tasviri jamiyatdagi gender stereotiplarning qanchalik chuqur ildiz otganini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz maqollarida ayol obraziga bo'lgan munosabat ziddiyatli xarakterga ega bo'lib, u ijobiy (mehnatsevarlik, sadoqat, go'zallik) va salbiy (emotsionallik, aqlan zaiflik, gapdonlik, o'zgaruvchanlik) sifatlar bilan ifodalangan. Maqollar orqali ayolning yoshiga, tashqi ko'rinishiga, hissiy holatiga va ijtimoiy roliga berilgan baholar genderga oid stereotipik qarashlarning shakllanganligini aks ettiradi.

Shuningdek, ayol obrazi ko'pincha erkaklar nuqtai nazaridan, instrumental (foydachilik) yondashuv asosida baholangan. Bu holat ingliz tilidagi paremiologik birliklarda androcentrik dunyoqarashning ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, xalq maqollari nafaqat til, balki madaniyat, ijtimoiy ong va tarixiy tafakkurning mahsuli sifatida gender stereotiplarni mustahkamlovchi kuchli vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, H.D. (1994). *Principles of language learning and teaching*. Prentice Hall Regents.
2. Butler, J. (1990). *Gender trouble: Feminism and the subversion of identity*. Routledge.
3. Connell, R.W. (1993). The big picture: Masculinities in recent world history. *Theory and Society, 22*(5), 597–623.
4. Crystal, D. (1997). *English as a global language*. Cambridge University Press.
5. Абакумова, О.Б., & Кирюхина, Н. В. (2021). Метафоры в пословицах с гендерным компонентом и образ женщины в русских и английских паремиях. *Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского*, (4), 1–8.
6. Аносов, Е.А. (2012). Гендерные стереотипы в паремиях русского языка. *Вестник Южно-Уральского государственного университета*, (25), 40–45.
7. Городникова, М.Д. (2002). Гендер в интерактивной интеракции. В *Гендер: язык, культура, коммуникация: доклады 1-й междунар. конф.* (с. 55–59). МГЛУ.
8. Горошко, Е.И. (1999). Особенности мужского и женского стиля письма. В *Гендерный фактор в языке и коммуникации: Сборник научных трудов* (Вып. 446, с. 83–92). МГЛУ.
9. Кирилина, А.В. (1999). *Гендер: лингвистические аспекты*. Институт социологии РАН.
10. Кирилина, А.В. (2021). Гендер и гендерная лингвистика на рубеже третьего тысячелетия. *Вопросы психолингвистики*, (3), 5–14.
11. Комова, Д.Д., & Ломакина, О.В. (2019). Словарное и дискурсивное направление реконструкции паремиологической картины мира: опыт интерпретации (на материале русского языка). *Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И.Я. Яковлева*, *3*(103), 106–112.
12. Кронгауз, М.А. (1996). Sexus, или Проблема пола в русском языке. В *Русистика. Славистика. Индоевропеистика: Сборник к 60-летию А.А. Зализняка* (с. 151–160). М.
13. Меренков, А.В. (2001). *Социология стереотипов*. Изд-во Урал. ун-та.
14. Мудрая, М.В. (2021). Репрезентация гендера в «Пословицах и поговорках русского народа» В.И. Даля [Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук]. Воронеж.

15. Рябов, О.В. (2001). *«Матушка-Русь»: Опыт гендерного анализа поисков национальной идентичности России в отечественной и западной историософии*. Ладомир.
16. Садохин, А.П. (2005). *Введение в теорию межкультурной коммуникации*. Высшая школа.
17. Словарь гендерных терминов. (2002). В А.А. Денисова (Ред.), *Словарь гендерных терминов*. Региональная общественная организация «Восток-Запад: Женские Инновационные Проекты».
18. Телия, В.Н. (1996). *Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. Языки русской культуры.
19. Трофимова, Е.И. (2004). О концептуальных понятиях и терминах в гендерных исследованиях и феминистской теории. *Женщина в российском обществе*, (4), 25–31.
20. Фаттахова, Н.Н., & Кулькова, М.А. (2013). *Народные приметы в разноструктурных языках: Монография*. Флинта; Наука.